



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**ALFRAGANUS
UNIVERSITY**

NODAVLAT OLIIY TA'LIM TASHKILOTI
"ALFRAGANUS UNIVERSITY"



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

STOMATOLOGIYA VA YUZ-JAG' JARROHLIGIDA KASALLIKLARNI TASHXISLASH VA DAVOLASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI



26-27 NOYABR 2026



TOSHKENT, O'ZBEKISTON

BILIM BUGUN —
SOG'LOM TABASSUM
ERTAGA



4 ILMIY SHO'BA

Stomatologiya, farmakologiya,
klinik va fundamental tibbiyot



ISHTIROK SHAKLI

Oflayn va onlayn



ILMIY NASHR

DOI (Crossref) va
akademik ko'rinishchanlik

HURMATLI HAMKASBLAR!

Alfraganus University Sizni 2026-yil 26-27-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan "Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligida kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy texnologiyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etishga taklif etadi.

Konferensiya mutaxassislarni professional tajriba almashish, zamonaviy ilmiy va klinik yutuqlarni taqdim etish hamda multidisiplinar hamkorlikni rivojlantirish uchun yagona ilmiy maydonda birlashtiradi. Ishtirok shakli - oflayn va onlayn. Ishchi tillar - o'zbek, rus va ingliz tillari.

Konferensiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlar ishtirokchilarning o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

ILMIY NASHR VA AKADEMIK KO'RINUVCHANLIK

Ishtirokchilarga ilmiy maqolalarini Alfraganus Universityning raqamli ilmiy platformalarida nashrga taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Nashrlar DOI (Crossref) xalqaro raqamli identifikatori bilan ta'minlanishi hamda Google Scholar va boshqa akademik tizimlar orqali ilmiy ko'rinuvchanligini oshirish imkoniyatiga ega. Universitet ilmiy-analitik faoliyatida yetakchi xalqaro ma'lumotlar bazalari - Scopus va Web of Science mezonlariga yo'naltirilgan.

MUHIM SANA

1 NOYABR 2026

Ilmiy maqolalar va ma'ruza materiallarini topshirishning yakuniy muddati.

KONFERENSIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI

I

Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligida innovatsion diagnostika, davolash va reabilitatsiya texnologiyalari

II

Stomatologiyada farmatsiya va klinik farmakologiyaning istiqbolli ilmiy-amaliy yo'nalishlari

III

Somatik va jarrohlik patologiyalarining stomatologik amaliyot bilan integratsiyasi: multidisiplinar yondashuvlar

IV

Fundamental tibbiyot fanlarining zamonaviy stomatologiya va yuz-jag' jarrohligidagi o'rni: morfologik, funksional va molekulyar asoslar

ILMIY MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

Konferensiyaga taqdim etiladigan ilmiy maqolalar "ALFRAGANUS" xalqaro ilmiy jurnali mualliflar uchun qo'llanmasi talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.

01 HAJM VA TEXNIK FORMAT

- Maqola hajmi - kamida 6 sahifa yoki 10 000 belgidan kam bo'lmashligi lozim.
- Matn Arial, 12 pt shriftida, 1,15 qator oralig'ida rasmiylashtiriladi.
- Sahifa maydonlari: chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqoridan 2 sm, pastdan 2 sm.
- Yuboriladigan fayl tahrirlash uchun ochiq bo'lishi va "faqat o'qish" (read-only) rejimida saqlanmasligi lozim.

02 METAMA'LUMOTLAR VA MAQOLA TUZILMASI

- Maqola nomi, annotatsiya, kalit so'zlar hamda muallif haqidagi ma'lumotlar o'zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etiladi.
- Annotatsiya hajmi 250-300 so'z, kalit so'zlar soni 5-10 ta bo'lishi tavsiya etiladi.
- Muallif haqida F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ORCID hamda elektron pochta manzili ko'rsatiladi.
- UDK indeksi majburiy hisoblanadi.
- Maqola tuzilmasi: Kirish, Usullar, Natijalar, Muhokama, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar.

03 ADABIYOTLAR

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va matn ichidagi havolalar APA uslubida rasmiylashtiriladi.
- Adabiyotlar ro'yxati kamida 10 ta manbani, shundan kamida 2 tasi Scopus yoki Web of Science bazalarida indekslangan manbalarni o'z ichiga olishi lozim.
- Internet manbalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar foydalanilgan sana ko'rsatilgan holda izohlarda (footnote) beriladi.

04 JADVALLAR, RASMLAR VA FORMULALAR

- Jadvallar va rasmlar tartib raqami, nomi hamda manbasi bilan keltiriladi.
- Diagrammalar Excel formatida, ularning dastlabki raqamli ma'lumotlari bilan birga taqdim etiladi.
- Formulalar MathType dasturida tayyorlanadi.
- Grafik va tasviriy materiallar yuqori sifatli hamda, imkon qadar, tahrirlash mumkin bo'lgan formatda taqdim etilishi lozim.

05 ORIGINALLIK

- Qo'lyozma original, ilgari nashr etilmagan va boshqa jurnal tahririyatida ko'rib chiqilayotgan bo'lmashligi kerak.

MUHIM NASHR SHARTLARI

- Har bir muallifdan faqat bitta ilmiy maqola qabul qilinadi.
- Ilmiy ekspertiza natijalariga ko'ra, har bir sho'badan eng yaxshi 10 ta maqola "ALFRAGANUS" xalqaro ilmiy jurnalida nashr etish uchun saralab olinadi.

ESLATMA: Mazkur talablar ilmiy maqolalarga nisbatan qo'llaniladi. Belgilangan talablarga javob bermaydigan materiallar taqrizga yuborilishidan oldin mualliflarga qayta ishlash uchun qaytarilishi mumkin.

KONFERENSIYADA ISHTIROK ETISH UCHUN ARIZA

Arizada quyidagi ma'lumotlar to'liq va aniq ko'rsatilishi lozim:

No	Ma'lumot turi	Ishtirokchi tomonidan to'ldiriladi
1	Ma'ruzachi va hammualliflarning F.I.Sh. (to'liq)	
2	Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni	
3	Lavozimi	
4	Ish joyining to'liq nomi	
5	Sho'ba nomi	
6	Ma'ruza yoki taqdimot nomi	
7	Ishtirok shakli: oflayn / onlayn	
8	Aloqa telefoni va elektron pochta manzili	

ALOQA VA RO'YXATDAN O'TISH

Sayt: www.alfraganus.uz

Materiallar: _____

Ro'yxatdan o'tish: _____

UMUMIY ALOQA

Mullajanova Diyora Shavkatovna
+998 93 975 40 39

Xolikov Anvar Sobirjonovich
+998 99 857 33 56

Konferensiya manzili: Toshkent shahri, Alfraganus University

SIZNI KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI SAFIDA KUTIB QOLAMIZ!

TASHKILIY QO'MITA VA KOORDINATORLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning muvofiqlashtiruvchi tarkibi

RAHBARIYAT VA ILMIY MUVOFIQLASHTIRISH

Tashkiliy qo'mita raisi

Umumiy rahbarlik, dasturni tasdiqlash va rasmiy qarorlar.

Mustanov T.B.

Konferensiya koordinatori / Project Manager

Tayyorgarlik jarayonini muvofiqlashtirish, muddatlarni nazorat qilish va ishchi guruhlar bilan hamkorlik.

Tursunova J.A. — +998 90 912 11 75

Ilmiy kotiblar

Arizalar va ma'ruzalarni qabul qilish, ma'ruzachilar bilan aloqa va ilmiy dasturni shakllantirish.

Pulatova B.J. • **Jalilov F.S.**

Xalqaro ishtirokchilar koordinatorlari

Xorijiy ishtirokchilar, taklifnomalar va tashkiliy muloqot.

Pulatova L.T. • **Tursunova J.A.**

ILMIY SHO'BALAR KOORDINATORLARI

I

SHO'BA

Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligida innovatsion diagnostika, davolash va reabilitatsiya texnologiyalari

Bahramova F.N. — +998 33 757 37 57 • **Absalamova N.F.** — +998 91 523 62 30

II

SHO'BA

Stomatologiyada farmatsiya va klinik farmakologiyaning istiqbolli ilmiy-amaliy yo'nalishlari

Alixodjayeva M.I. — +998 90 902 11 47 • **Madatova N.A.** — +998 93 595 28 63

III

SHO'BA

Somatik va jarrohlik patologiyalarining stomatologik amaliyot bilan integratsiyasi: multidisiplinar yondashuvlar

Ahmedova F.M. — +998 90 347 67 67 • **Ergasheva K.M.** — +998 99 728 35 15

IV

SHO'BA

Fundamental tibbiyot fanlarining zamonaviy stomatologiya va yuz-jag' jarrohligidagi o'rni: morfologik, funksional va molekulyar asoslar

Mirzaeva N.A. — +998 90 930 57 94 • **Bazarova G.R.** — +998 94 622 59 70